CAP O‘ZBEKISTON: TAHLILIY
№ 9-2026-yil iyun

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini kengaytirdi. Teng imkoniyatlar haqiqatga aylandimi?

2010–2023-yillar ma’lumotlari

Muallif: Nozimjon Ortiqov

Fotosurat: Matluba Mukhamedova / World Bank, Flickr

Nozimjon Ortiqov

davlat siyosati sohasidagi iqtisodchi va tahlilchi. U dalillarga asoslangan tadqiqotlar va davlat siyosatining keng qamrovli tahlili orqali O‘zbekistondagi islohotlarni amalga oshirishga ko‘maklashish bo‘yicha o‘n yildan ortiq tajribaga ega. U O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) direktorining o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritadi. Ushbu lavozimda u makroiqtisodiy prognozlash, mahsuldorlik va hududiy rivojlanishni baholash, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosati hamda xalqaro hamkorlar bilan birgalikda islohotlarni baholash kabi yo‘nalishlardagi tahliliy ishlarga rahbarlik qiladi.

Asosiy xulosalar

- **Tizimning kengayishi qamrov miqyosini o‘zgartirdi.** Oliy ta’lim muassasalari soni 119 tadan 222 taga yetdi, talabalar soni esa 1,4 million nafardan oshdi.
- **Teng imkoniyatlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmadi.** Universitetga kira olish hali ham oilaning ijtimoiy kelib chiqishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda.
- **Islohotlarning navbatdagi vazifasi — o‘qishni bitirishni ta’minlash.** Oilasida birinchi bo‘lib oliy ma’lumot olayotgan (oiladagi birinchi avlod talaba), shuningdek, qishloq joylardan va kam daromadli oilalardan chiqqan talabalarning o‘qishga kirishi, o‘qishini davom ettirishi va diplom olishini kuzatib borish zarur.

CAP CENTRAL ASIA PROGRAM
CAP UZBEKISTAN PATHWAYS OF REFORM AND DEVELOPMENT

Kirish: tizimni kengaytirish va imkoniyatlar

2017-yildan boshlab O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini kengaytirishni o‘zining taraqqiyot strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib kelmoqda. Yangi universitet va filiallar ochilishi hamda talabalar sonining ortishi bundan o‘n yil avval ancha cheklangan imkoniyatlarni ochib berdi. Bu, ayniqsa, ko‘p sonli yoshlar mehnat bozoriga kirib kelayotgan va yuqori malakali mutaxassislarga talab ortib borayotgan O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq ta’lim quvvatlarining oshirilishi teng imkoniyatlar ta’minlanganini anglatmaydi. Universitetlardagi yangi o‘rinlar faqat kam ta’minlangan oilalar va ta’lim olish imkoniyati cheklangan hududlardagi yoshlar o‘qishga tayyorlana olsa, ta’lim dasturlari va o‘qish narxi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lsa, o‘qishini moliyalashtira olsa, zarurat tug‘ilganda boshqa joyga ko‘chib o‘ta olsa, o‘qishini davom ettirib, diplomli bo‘la olsagini jamiyatdagi tengsizlikni qisqartirishga yordam beradi. Agarda bu to‘siqlar saqlanib qolsa, tizimning kengayishi oliy ta’lim olishda mavjud ijtimoiy tabaqalanishni o‘zgartirmagan holda talabalar sonini oshirishi mumkin.

Ushbu tahliliy ma’lumotnomada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining jadal kengayishi aholining turli guruhlari uchun imkoniyatlar kengayishi bilan birga kechdimi, degan savol ko‘rib chiqiladi. Bu savolga javob berishda ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi. Tizim sezilarli darajada kengaydi, biroq oliy ma’lumot olish ehtimoli hali ham oilaning ijtimoiy kelib chiqishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim olish imkoniyatlarida hududiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Shu bois, islohotlarning keyingi bosqichida muvaffaqiyatni nafaqat ta’lim muassasalari va o‘quv o‘rinlari soniga, balki oilasida birinchi bo‘lib oliy ma’lumot olayotgan talabalar, qishloq yoshlari va kam daromadli oilalar farzandlari yaratilgan imkoniyatlardan qay darajada foydalana olayotganiga qarab baholash lozim.

Tizimning kengaygani aniq. Imkoniyatlar tenglashgani esa — shubha ostida. Navbatdagi qadam — tizim kengayishidan tayyorgarligi zaifroq, ma’lumoti kamroq yoki moliyaviy imkoniyatlari cheklangan talabalar ham manfaat ko‘rishini ta’minlashdan iborat.

Tizimning kengayishi haqiqat, ammo u notekis kechmoqda

2017-yildan buyon O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi jadal kengaymoqda. Oliy ta’lim muassasalari soni 2019/20-o‘quv yilida 119 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2024/25-o‘quv yiliga kelib ularning soni 222 taga yetdi. Talabalarning umumiy soni esa taxminan 441 ming nafardan 1,4 million nafargacha oshdi[1]. Biroq bu o‘sish notekis kechdi. Mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 20 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan har 1000 nafar yoshga nisbatan 73 nafardan 180 nafargacha, ya’ni ikki baravardan ko‘proqqa oshdi. Shunga qaramay, Toshkent shahridan tashqari birorta hudud poytaxtning 2020/21-o‘quv yilidagi

darajasiga ham erisha olmadi (1-rasm).



1-rasm: Toshkent shahrini hisobga olmaganda, 2020/21-o'quv yilidan 2024/25-o'quv yiligacha bo'lgan davrda hududlarda oliy ta'limning o'sishi. *Manba: Oliy ta'lim tizimi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlar. Ko'rsatkich bo'yicha izoh: har bir hududda joylashgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni hududdagi 20–24 yoshdagi aholi soniga bo'linib, 1000 ga ko'paytiriladi. Kulrang nuqtalar 2020/21-o'quv yili ko'rsatkichlarini, rangli nuqtalar esa 2024/25-o'quv yili ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Toshkent shahri grafikda ko'rsatilgan hududlar qatoriga kiritilmagan: poytaxtdagi tegishli ko'rsatkich 20–24 yoshdagi har 1000 nafar yoshga to'g'ri keladigan talabalar soni taxminan 1 026 nafardan 2 805 nafargacha o'sgan, bu esa poytaxtda ta'lim muassasalari va talabalar to'planganini ko'rsatadi. Hududlarning rangi tizimning kengayish jadalligini aks ettiradi.*

Kengayish ko'proq o'quv o'rinlarini yaratadi. Biroq bu ulardan aynan qaysi talabalar foydalana olishini ko'rsatmaydi. Tayyorgarlik sifati, axborot olish imkoniyati, kirish imtihonlariga tayyorgarlik darajasi, transport xarajatlari, o'qish uchun to'lov va yashash xarajatlari oila va hududga qarab farq qiladigan sharoitda ta'lim quvvatlarining oshirilishi imkoniyatlardagi nisbiy tafovutlarni bartaraf etmagan holda, mutlaq ma'noda qamrovni kengaytirishi mumkin.

Shu bois asosiy masala O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida o'rinlar ko'paygani bilan cheklanib qolmaydi. Tizimning kengayishi oilaviy kelib chiqish, yashash joyi va erishilgan ta'lim darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni zaiflashtiradimi yoki yo'qligini tushunish muhimdir.

Oilaviy kelib chiqish hamon ta'lim darajasi bilan chambarchas bog'liq

"O'tish davridagi hayot" (*ingl.: Life in Transition Survey,* keyingi o'rinlarda *LiTS*) nomli so'rovning uchta bosqichi ma'lumotlari oilaviy kelib chiqish hamon erishilgan ta'lim darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi[2]. 2022–2023-yillarda ota-onasi oliy ma'lumotli bo'lgan respondentlarning 87 foizi ham oliy ma'lumot olgan. Ota-onasi umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan respondentlar orasida taxminan teng qismi o'sha ta'lim darajasida qolgan yoki yuqoriroq darajaga ko'tarilgan.

Boshlang‘ich ta’lim darajasi pastroq bo‘lgan oilalardan respondentlar tanlanmasi ishonchli baho olish uchun yetarli emas.

So‘rovning barcha bosqichlarida farzandlarning ta’lim darajasi ota-onalarining ta’lim darajasiga qay darajada mos kelishini o‘lchaydigan barqarorlik ko‘rsatkichi bu qonuniyatni tasdiqlaydi[3]. Barqarorlik 2010-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davrda oshgan va 2022–2023-yillarda yuqori darajada saqlanib qolgan (2-rasm). Ushbu ko‘rsatkichning keyinroq pasayishini ehtiyotkorlik bilan izohlash lozim. Keng xalqaro taqqoslashda bu qiymatlar rivojlanayotgan va o‘rta daromadli mamlakatlar uchun o‘rtacha darajadan yuqori darajagacha bo‘lgan oraliqda joylashgan[4].



2-rasm: LiTS so‘rovi bosqichlari bo‘yicha barqarorlik ko‘rsatkichi. Ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, farzandlarning ta’lim darajasi ota-onalarining ta’lim darajasiga shunchalik mos kelishini anglatadi. *Manba: LiTS so‘rovining 2 (2010), 3 (2016) va 4- bosqichlari (2022–2023). O‘zbekistonning 25–64 yoshdagi katta yoshli aholisi. Shtrixlangan soha: 95 foizlik ishonch oralig‘i.*

Hudud, ayni yilda tug‘ilganlar guruhi, shahar yoki qishloqda yashash va jins kabi omillarni hisobga olish asosiy natijani o‘zgartirmaydi. So‘rovning uchala bosqichi ma’lumotlarini birlashtirgan modellarda ota-onalarning ma’lumoti erishilgan ta’lim darajasini belgilovchi eng kuchli omil bo‘lib qolmoqda. Migratsiya tajribasi va uy xo‘jaligi tuzilmasi kabi omillarni qo‘shish ota-onalarning ma’lumotini aks ettiruvchi koeffitsiyentga deyarli ta’sir qilmaydi. So‘rovning barcha bosqichlarida shahar aholisi qishloq aholisiga qaraganda yuqoriga yo‘nalgan ta’lim mobilligini ko‘proq namoyon etadi. Hududlararo tafovutlar ham salmoqli: 2022–2023-yillarda barqarorlik ko‘rsatkichi ayrim hududlardagi nolga yaqin qiymatlardan Toshkent shahrida 0,4 dan yuqori darajagacha o‘zgarib turgan.

Mavjud ma’lumotlar tizimning kengayishi ota-onalar ma’lumoti va farzandlarining ta’lim darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni susaytirayotganini hali tasdiqlamaydi. Biroq bu xulosaga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. So‘rovning katta yoshli ishtirokchilarining aksariyati o‘qishini 2017-yildan keyingi

islohotlar boshlangunga qadar tugatgan, shu bois so‘rov ma’lumotlari tizim kengayishi oqibatlarini to‘liq baholash imkonini bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, ular avloddan avlodga o‘tuvchi ustunliklar hamon muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda.

O‘rinlar sonining oshirilishi mavjud tafovutni bartaraf etishi amrimahol, chunki oliy ta’lim olish imkoniyatlari o‘qishga kirishdan ancha avval shakllanadi. Resurslari ko‘proq oilalarning farzandlari ko‘pincha o‘rta maktabda yaxshiroq tayyorgarlikdan o‘tadilar, repetitorlar xizmatidan va o‘qishga kirish tartib-qoidalari hamda ta’lim yo‘nalishlari haqidagi ma’lumotlardan kengroq foydalana oladilar, shuningdek, imtihonlarga tayyorgarlik, transport, ko‘chish, kontrakt to‘lovi va yashash xarajatlarini qoplash uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Ushbu mexanizmlar nima uchun yangi ta’lim imkoniyatlaridan baribir, asosan, dastlabki holati qulayroq bo‘lgan va o‘quv o‘rinlari uchun raqobatga yaxshiroq tayyorlangan talabalar foydalanishini tushuntirishga yordam beradi.

Uy xo‘jaliklarining resurslari yangi imkoniyatlardan kim foydalana olishini belgilaydi

Ta’lim imkoniyatlari kengayganidan kim foydalana olishini ko‘p jihatdan oilaning resurslari belgilab beradi. Tizimning kengayish sur’atlari yuqori bo‘lgan hududlarda pul o‘tkazmalarini oluvchi uy xo‘jaliklarining 26 foizi bu mablag‘larning bir qismini ta’limga yo‘naltirsa, kengayish sur’atlari past bo‘lgan hududlarda bu ko‘rsatkich 16 foizni tashkil etadi[5]. Uy xo‘jaliklarining qariyb 63 foizi ta’lim uchun xarajat qilishi, 14 foizi esa repetitor xizmatlariga haq to‘lashini ma’lum qilgan.

Bu xarajatlar muhim ahamiyatga ega, chunki oliy ta’lim olish imkoniyati faqat universitetning o‘zidagina shakllanmaydi. Oilalar repetitorlik, internetga ulanish, elektron qurilmalar, imtihon markazlariga borish, hujjat topshirish bilan bog‘liq xarajatlar, boshqa shaharga ko‘chish, yotoqxonadan joy bo‘lmaganda muqobil turar joy, shuningdek, shartnoma asosidagi o‘qish uchun pul to‘lashiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu xarajatlar ortib borgani sari, kam daromadli va ota-onasining ma’lumoti darajasi past bo‘lgan oilalarning farzandlari, hatto o‘quv o‘rinlari soni rasman ortgan taqdirda ham, to‘siqlarga duch kelaveradi.

LiTS so‘rovining 2022–2023-yillarda o‘tkazilgan 4-bosqichining bolalarga bag‘ishlangan moduli maktab yoshidagi bolalari bor 180 ga yaqin uy xo‘jaligini qamrab oladi. Tanlanma kichik bo‘lsa-da, qayd etilgan ta’limdagi uzilishlar miqyosi ancha katta bo‘lgan[6]. Asosiy ko‘rsatkichlar 3-rasmda umumlashtirilgan.



3-rasm: COVID-19 davridagi ta'lim jarayonidagi uzilishlar va uy xo'jaliklari tomonidan ta'limning qo'llab-quvvatlanishi

Manba: LiTS so'rovining 4-bosqichi (2022–2023) bolalar moduli, O'zbekiston bo'yicha tanlanma – taxminan 180 ta uy xo'jaligi.

Uy xo'jaliklarining 78 foizi farzandining o'qishi butunlay to'xtaganini ma'lum qilgan. Oilalarning deyarli to'rtdan uch qismi masofaviy ta'limda kamida bitta to'siqqa duch kelgan: 73 foizi internet bilan bog'liq muammolarni, 64 foizi esa mos elektron qurilmalar yo'qligini ko'rsatgan. An'anaviy ta'lim to'xtatilganda, bolalarning o'qishiga asosan onalar yordam bergan: qayd etilgan yordam holatlarining 87 foizi onalar hissasiga to'g'ri kelsa, otalar hissasi atigi 4 foizni tashkil etgan. Ota-onasining ma'lumoti darajasi pastroq bo'lgan oilalar internet va elektron qurilmalar bilan bog'liq muammolar haqida ko'proq xabar bergan.

Bu faqat COVID-19 pandemiyasi davri uchungina muhim emas. Ta'lim sinfdan tashqariga ko'chirilganda, uydagi internet, elektron qurilmalar va kattalarning vaqti amalda ta'lim tizimining bir qismiga aylanadi. Resurslari kamroq bo'lgan oilalarning bunday o'zgarish o'rnini qoplash imkoniyatlari cheklanganroqdir. Xuddi shu mantiq oliy ta'limni kengaytirishga ham tegishli: yangi institutsional imkoniyatlar, agar talabalar ham ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan axborotga, tayyorgarlikka va ko'makka ega bo'lsagina, eng katta foyda keltiradi.

Bu to'siqlarni alohida uy xo'jaliklarining muammosi deb hisoblamaslik lozim. Ular butun ta'lim yo'li davomida sifatli o'rta ta'limdan teng foydalana olmaslik, imtihonlarga tayyorgarlikning notekis taqsimlangani, ta'lim muassasalari sifatidagi hududiy tafovutlar, xususiy repetitorlikning ortib borayotgan o'rni hamda shartnoma asosida o'qish va boshqa joyga ko'chishning moliyaviy yuki kabi tarkibiy farqlarni aks ettiradi. Shunday qilib, agar yangi o'quv o'rinlaridan foydalanish allaqachon yaxshiroq tayyorgarlikka, ko'proq ma'lumotga va katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar uchun osonroq bo'lsa, tizimning kengayishi tengsizlikni qayta tiklashi mumkin.

Mavjud ma’lumotlar asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin va qanday xulosalar chiqarish mumkin emas

Ushbu tahliliy ma’lumotnoma shuni ko‘rsatadiki, katta yoshdagi aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarning ma’lumotlariga ko‘ra, oilaviy kelib chiqish hali ham erishilgan ta’lim darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq bu ma’lumotnomada 2017-yildan keyin boshlangan tizim kengayishining sabab-oqibat ta’siri baholanmagan.

To‘rtta cheklovni hisobga olish lozim. LiTS so‘rovining bosqichlari bir xil oilalarning yalpi so‘rovi emas, balki takroriy kesishma so‘rovlardir. 2022–2023-yillarda so‘rovda qatnashgan kattalarning aksariyati 2017-yildan keyingi tizim kengayishi boshlanishidan avval o‘qishni tamomlagan. 2016-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda barqarorlik ko‘rsatkichining o‘zgarishi statistik jihatdan bir ma’noli emas. COVID-19 davridagi bolalar modulining tanlanmasi kichik bo‘lib, taxminan 180 ta uy xo‘jaligini qamrab oladi.

Bu cheklovlar chiqarilishi mumkin bo‘lgan xulosalar doirasini toraytiradi. Biroq ular xulosalarni butunlay inkor etmaydi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini jadal kengaytirdi, ammo mavjud ma’lumotlar hozircha meros bo‘lib o‘tgan ta’limdagi afzalliklarning katta yoshdagi aholi ta’lim darajasiga ta’siri susayganini ko‘rsatmayapti.

Islohotlarning keyingi bosqichidagi uchta ustuvor vazifa

Mavjud ma’lumotlar keyingi bosqichda uchta vazifa turganini ko‘rsatadi. Ular (1) qo‘llab-quvvatlash choralarini ertaroq boshlash, (2) tizim kengayishini o‘qishni tamomlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash va (3) imkoniyatlar tengligi monitoringini kundalik amaliyotga kiritish. Kelgusi uch yil – navbatdagi bir xil yilda tug‘ilgan yoshlar qabul va birinchi kurs bosqichlaridan o‘tgunga qadar tizimni kengaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni tenglik bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirish uchun qulay imkoniyatlar davridir.

1. Universitetga kirishdan oldin imkoniyatlar tengligini qo‘llab-quvvatlashni boshlash Oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirish vaqtidayoq abituriyentning oilaviy kelib chiqishi uning tayyorgarlik darajasi, xabardorligi va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchiga ta’sir ko‘rsatib bo‘ladi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda hududiy ta’lim boshqaruv organlari o‘quvchilar 9 va 11-sinflarda keyingi ta’lim yo‘nalishini tanlash, imtihonlar va o‘qishni davom ettirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilayotganda ularni qo‘llab-quvvatlash choralariga e’tibor qaratishi lozim.

Ilgari universitetlarga kirish koʻrsatkichlari past boʻlgan qishloq tumanlari va maktablarda maqsadli tayyorlov dasturlarini, kirish imtihonlariga tayyorlanish uchun subsidiyalangan mashgʻulotlarni hamda keyinchalik bilimlardagi boʻshliqlarni toʻldirishga qaratilgan diagnostik testlarni joriy etish mumkin. Universitetlar yaqin atrofdagi oʻrta maktablar bilan hamkorlikda mentorlik tizimini yoʻlga qoʻyib, oilasida birinchi boʻlib oliy ta'lim muassasasiga kirayotgan oʻquvchilarga talaba va oʻqituvchilarni biriktirishi mumkin. Axborot uchrashuvlarida hujjat topshirish tartibi, ta'lim yoʻnalishlari, shartnoma asosida oʻqish narxi, stipendiya olish imkoniyatlari va talabalar turar joylaridagi oʻrinlar mavjudligi haqida sodda va tushunarli tilda ma'lumot berish zarur.

Monitoringning asosiy koʻrsatkichlari qatoriga kirish imtihonlarida qatnashish, ariza topshirish, oʻqishga kirish va birinchi kursga qabul qilinish kabi ma'lumotlarni hududlar, jins, yashash joyi (shahar yoki qishloq) kesimida taqsimlash, shuningdek, mavjud ma'lumotlar imkon bersa, birinchi avlod talabasi kesimida ajratish kerak boʻladi.

2. Oliy ta'limning kengayishini kimlar oʻqishga kirayotgani, oʻqishni davom ettirayotgani va diplom olayotganiga qarab baholash Yangi oliy ta'lim muassasalari va filiallarini faqat yaratilgan oʻquv oʻrinlari soniga qarab baholamaslik kerak. Ularga oliy ta'lim olish imkoniyati cheklangan hududlardan talabalar kirayotgani, oʻqishni davom ettirayotgani va birinchi kursni tamomlayotgani ham hisobga olinishi zarur.

Bu ta'lim quvvati boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlardan talabalarning ta'lim yoʻnalishi boʻyicha oʻsishini ifodalovchi maqsadli koʻrsatkichlarga oʻtishni anglatadi. Kengayish sur'atlari yuqori boʻlgan hududlardagi oliy ta'lim muassasalari zarur akademik tayyorgarlikka ega, ammo moliyaviy imkoniyatlari yoki axborot olish imkoniyati cheklangan oʻquvchilarni aniqlash uchun oʻrta maktablar bilan bevosita hamkorlik qilishi lozim. Birinchi semestr boshlanishidan oldingi tayyorlov-moslashtiruv dasturlari birinchi avlod talabalariga akademik talablar, ma'muriy tartib-qoidalar va shaharda yashash bilan bogʻliq xarajatlarga koʻnikishiga yordam berishi mumkin. Xarajatlar asosiy toʻsiq boʻlgan hollarda, moddiy ahvolni hisobga oluvchi grantlar, talabalar turar joyidan oʻrinlar, transport yordami va tayyorlov kurslari ota-onasi oliy ma'lumotli boʻlmagan talabalarga maqsadli ravishda taqdim etilishi kerak.

Birinchi oʻquv yilidan soʻng talabalar kontingentini saqlab qolish faqat universitetning ichki statistikasi emas, balki samaradorlikning doimiy koʻrsatkichiga aylanishi shart. Kengayish uchun davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan muassasalar qishloq joylaridan, oliy ta'lim olish imkoniyati cheklangan hududlardan va oilasida birinchi avlod talabasi boʻlgan yoshlar birinchi kursdan soʻng oʻqishni davom ettirayotgani hamda oʻqishni tamomlash sari intilayotgani toʻgʻrisida hisobot berishi lozim.

3. Imkoniyatlar tengligi ko‘rsatkichlarini har yili e’lon qilib borish Hozirda O‘zbekistonda oliy ta’lim qanchalik ommabop va teng imkoniyatli bo‘lib borayotganini baholash imkonini beruvchi, muntazam e’lon qilinadigan ko‘rsatkich mavjud emas. Birinchi bosqichda mavjud ma’muriy ma’lumotlar asosida o‘qishga qabul qilish va bitirish ko‘rsatkichlarini hududlar va jinslar kesimida har yili e’lon qilib borish lozim. Keyingi bosqichda unga kirish imtihonlarida ishtirok etish, talabalar kontingentini saqlab qolish, shahar va qishloq o‘rtasidagi farqlar hamda so‘rovnomalar orqali olingan uy xo‘jaliklarining tavsiflariga oid ma’lumotlarni qo‘shish zarur.

Oliy ta’limda imkoniyatlar tengligi bo‘yicha yillik axborot panelini yaratish amaliy yechim bo‘la oladi. U, eng kamida, o‘qishga qabul qilish, birinchi o‘quv yilidan so‘ng talabalar safida qolish, o‘qishni tamomlash va stipendiyalar bilan qamrab olish ko‘rsatkichlarini talabalarning hududi, jinsi hamda shahar yoki qishloqda yashashiga qarab aks ettirishi zarur. Axborot tizimlari takomillashgani sari unga ota-onalarning ma’lumoti, talabaning oilasida birinchi avlod oliy ma’lumotli ekani, u bitirgan maktabning joylashuvi, yotoqxona bilan ta’minlangani va (agar bunday ma’lumotlarni yig‘ish imkoni bo‘lsa) o‘qishni moliyalashtirish manbasi haqidagi ma’lumotlarni ham kiritish kerak bo‘ladi.

Bunday panelning maqsadi universitetlarni mexanik tarzda reytinglashdan iborat bo‘lmasligi lozim. U tizimning kengayishi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tafovutlarni qisqartiryaptimi yoki shunchaki avvalgi noteng tuzilma doirasida ta’lim quvvatlarini oshiryaptimi – shuni ko‘rsatib berishi kerak. Ommaviy hisobotlar berish mas’ul idoralarga qaysi hududlar, muassasalar va guruhlar manzilli ko‘makka muhtojligini aniqlashda ham yordam beradi.

Usullarning to‘liq tavsifi, diagnostika tartib-taomillari va natijalar barqarorligini tekshirish jarayoni ilova qilingan tadqiqot ishi hamda texnik ilovada keltirilgan.

Muvaffaqiyat deganda nimani tushunish kerak?

Tizimning kengayishi oliy ta’limdan foydalanish imkoniyatlari yanada adolatli bo‘lib borayotganini avtomatik tarzda anglatmaydi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining salohiyatini sezilarli darajada oshirdi, biroq imkoniyatlar faqatgina yaratilgan o‘rinlardan kam ta’minlangan oilalar va oliy ta’lim olish imkoniyati cheklangan hududlardagi talabalar ham foydalana olgandagina chinakamiga kengayadi.

Besh yildan so‘ng muvaffaqiyat deganda oilasida birinchi bo‘lib oliy ma’lumot olayotgan talabalar sonining ko‘payishi, o‘qishni tamomlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutning qisqarishi, ta’limdagi yutuqlarning oilaviy kelib chiqishga bog‘liqligining zaiflashuvi, shuningdek, imkoniyatlar tengligiga oid ochiq ko‘rsatkichlarning har yili yangilab borilishi

tushuniladi. Bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmasa, O‘zbekiston tizim kengayishi ko‘lamini baholay oladi, lekin u bilan birga ta’lim olish imkoniyatlari ham kengayib borayotganini aniqlay olmaydi.

Izohlar

1. Oliy ta’limga oid ma’muriy ma’lumotlar qatori rasmiy manbalar asosida tuzilgan. U mamlakatdagi barcha tan olingan oliy ta’lim mussaslarini qamrab oladi. Hududiy qamrov ko‘rsatkichi talabalarning yashash joyini emas, balki ta’lim muassasasi joylashgan hududni ifodalaydi. Olingan ma’muriy ma’lumotlarda talabalarning fuqaroligi yoki avvalgi yashash joyi bo‘yicha taqsimoti aks etmagan va ular to‘liq o‘quv yuklamasi (*FTE*) ekvivalentida emas, balki talabalarning haqiqiy soni bo‘yicha taqdim etilgan.
2. “Life in Transition Survey” (LiTS) so‘rovi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tomonidan o‘tkaziladi. LiTS so‘rovining 2- va 3-bosqichlari 10 ta viloyatni, 4-bosqichi esa barcha 14 ta ma’muriy hududni qamrab oladi.
   14. Bu tahlil bosqichlari bir xil oilalarning yalpi so‘rovi emas, balki takroriy kesishma so‘rovlardir. Yosh mezonlariga mos keladigan umumiy tanlanma 25–64 yoshdagi 3 155 nafar katta yoshli kishini tashkil etadi. Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi ta’lim darajasining o‘zaro bog‘liqligini baholash uchun ham respondentlarning o‘zi, ham ularning ota-onalari haqida ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan 2 874 nafar katta yoshli kishining ma’lumotlaridan foydalanilgan. Ota-onalarning ma’lumoti, agar ikkalasi haqida ham axborot bo‘lsa, ulardan birining eng yuqori ma’lumot darajasi bo‘yicha aniqlanadi. Agar faqat bitta ota-ona haqida ma’lumot mavjud bo‘lsa, o‘sha ota-onaning ma’lumot darajasidan foydalaniladi.
3. Barqarorlik ko‘rsatkichi – bu so‘rovning har bir bosqichi uchun alohida hisoblangan, farzandlarning ma’lumot darajasi va ota-onalarning ma’lumot darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik koeffitsiyentidir. Yuqoriroq qiymatlar farzandlarning ma’lumot darajasi ota-onalarinikiga ko‘proq mos kelishini anglatadi. So‘rovning 2010-yilgi bosqichida ota-onalarning ma’lumoti haqidagi axborot boshqacha to‘plangan va to‘ldirilmagan ma’lumotlar ulushi yuqoriroq bo‘lgan. Sezuvchanlik tahlili bosqichlar bo‘yicha qiymatlar tartibini tasdiqlaydi, biroq 2010-yilgi baholash ko‘proq noaniqliklar bilan bog‘liq.
4. Hertz va boshqa olimlar (2008) turli mamlakatlarda ta’lim sohasidagi avlodlararo korrelyatsiyani taxminan 0,2 dan 0,6 gacha bo‘lgan oraliqda baholaydilar. Shuningdek qarang: Narayan va boshqalar (2018) hamda Aydemir va Yaziji (2019) kabi olimlar tadqiqotlari.
5. Tavsifiy taqqoslash 2021–2025-yillardagi Uy xo‘jaliklari byudjetini o‘rganish ma’lumotlari asosida, hududlarni oliy ta’lim tizimini kengaytirish jadalligiga kesimida amalga oshirildi.
6. Tahlilga farzandlari COVID-19 pandemiyasidan oldin ta’lim olgan va ota-onalarining ma’lumot darajasi haqida axborot mavjud bo‘lgan respondentlar kiritilgan. Natijalar kuzatilgan qonuniyatlarni tavsiflaydi va sabab-oqibat bog‘liqligini baholash hisoblanmaydi.